

“O'zkimyosanoat” Ajda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda

// 28 January 2026 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-ekologiya-va-atrof-muhitni-muhofaza-qili>



“O’zkimyosanoat” AJda atrof-muhitni muhofaza qilish va atmosfera havosiga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni kamaytirish maqsadida keng ko’lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Korxonalarda atmosfera havosini doimiy nazorat qilish uchun sanitar postlar va statsionar kuzatish punktlari o’rnatilib, chang-gaz tozalash uskunalarining samaradorligini oshirish bo’yicha ishlar jadal olib borilmoqda.

- Jumladan, “Navoiyazot” AJning 3, 23 va 25-sexlarida atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarni onlayn tahlil qiluvchi 3 ta avtomatik gazanalizator o’rnatildi. Shuningdek, donadorlash minoralarida chiqindilarni tutib qolish maqsadida bir qator zamonaviy skrubber uskunali ishga tushirildi.
- Navoiy shahri va Karmana tumanida atmosfera havosining holatini nazorat qilish uchun jami 28 ta statsionar kuzatish punktlari o’rnatilib, ular viloyat prokuraturasi, ichki ishlar boshqarmasi hamda

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bilan integratsiya qilindi.

- Shu bilan birga, "Navoiyazot" AJ va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining situatsion markazi o'rtasida onlayn ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yildi.
- "Dehqonobod kaliy zavodi" Ajda ham sanitar himoya zonasi, "Beshbuloq" mahallasi va unga tutash hududlarda atmosfera havosini doimiy monitoring qiluvchi sanitar postlar va statsionar kuzatish punktlari o'rnatilib, ularni milliy geoaxborot tizimiga integratsiya qilish ishlari davom etmoqda.
- Kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida Shveytsariyaning VEMA S.A. kompaniyasi tomonidan "O'zkimyosanoat" AJ va tizim korxonalari ekologlari uchun issiqxona gazlari chiqindilarini monitoring qilish va hisoblash bo'yicha onlayn o'quv kurslari tashkil etildi.

Trening yakunida ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi.



Mazkur ishlar "O'zkimyosanoat" AJning dekarbonizatsiya, ekologik barqarorlik va milliy iqlim maqsadlarini qo'llab-quvvatlash yo'lidagi izchil sa'y-harakatlarini namoyon etadi.